O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori
_____ X.B.Yunusov
2025 yil “29” 08

Ro‘yxatga olindi: №BD-60810400-1.05
2025-yil “29” 08

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800000 - Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya
Ta’lim sohasi:	810000-Qishloq xo‘jaligi
Ta’lim yo‘nalishlari:	60810400 - Agronomiya 60810600 - Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi 60810700 - Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi

Samarqand 2025

Fan/modul kodi JMSB1104	O'quv yili 2025-2026	Semestr I	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1	Fanning nomi	Amaliy mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Jismoniy madaniyat va sport	60	60	120

2 **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni jismoniy tarbiyalashning maqsadi shaxsning jismoniy madaniyatini shakllantirishdir, bu esa o'z navbatida shaxsning ijtimoiy va kasbiy faoliyatga tayyorligi, sog'lom turmush tarziga rioya etish, muntazam ravishda jismoniy barkamolikka erishishga intilishni ta'minlaydi.

Fanning vazifasi – yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi o'quv, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va sog'lomlashtiruvchi masalalarni yechimi ko'zda tutilgan:

jismoniy madaniyatni shaxs shakllantirishdagi rolini tushunish va uni kasbiy faoliyatga tayyorlash;

jismoniy madaniyat va sog'lom turmush tarzining ilmiyamaliy asoslarini bilish;

jismoniy madaniyatga qadriyatli munosabatlar, sog'lom turmush tarzi, jismoniy barkamolikka intilish, va o'zo'zini tarbiyalash, jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug'ullanish zaruratini shakllantirish;

jismoniy tarbiya sohasidagi sog'liqni saqlash va mustahkamlash, ruhiy barkamollik, psixofizik qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirishdagi shaxsning sifat va hususiyatlarida tizimli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish;

talabaning kelajakdagi kasbiga psixofizik tayyorgarligini belgilaydigan amaliyjismoniy tayyorgarligini ta'minlash;

hayotiy va kasbiy maqsadlarga erishishda jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlaridan ijodiy foydalanish bo'yicha tajriba to'plash.

II. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1. Kirish nazorati. Joydan uzunlikka sakrash. Yakka cho'pda tortinish.
2. Kirish nazorati. 60 m ga yugurish.
3. Kross.-1000 m.ga (o'g'illar), 500 m.ga (qizlar) yugurishda yuqori startqa turish va yugurib chiqish texnikasini o'rgatish.
4. Kross.-1000 m.ga (o'g'illar), 500 m.ga (qizlar) yugurishda to'g'ri yo'lakdan

va qayrilish yulakdan yugurish texnikasini o'rgatish.
5. Kross.- 1000 m.ga (o'g'illar), 500 m.ga (qizlar) yugurishda masofani to'liq yugurish, marraga yetib kelish texnikasini o'rgatish, sinab ko'rish.
6. Kross.-Nazorat meyorlarini qabul qilish. 1000 m.ga (o'g'illar), 500 m.ga (qizlar) yugurish.
7. Turgan joydan uzunlikka sakrash texnikasini o'rgatish.
8. Turgan joydan uzunlikka sakrash texnikasini takomillashtirish.
9. Nazorat meyorlarini qabul qilish. Turgan joydan uzunlikka sakrash.
10. Ertalabki gigiyenik badan tarbiya mashqlarni bajarish texnikasini o'rgatish.
11. Ertalabki gigiyenik badantarbiya mashqlarni bajarish texnikasini takomillashtirish.
12.Nazorat meyorlarini qabul qilish. Ertalabki gigiyenik badantarbiya mashqlarini bajarish.
13. Qo'llarda tayanib yotgan holatda qo'llarni bukib yozish texnikasini o'rgatish.
14.Qo'llarda tayanib yotgan holatda qo'llarni bukib yozish texnikasini takomilashtirish.
15. Nazorat meyorlarini qabul qilish. Qo'llarda tayanib yotgan holatda qo'llarni bukib yozish
16. Ikki oyoqda o'tirib turish texnikasini o'rgatish.
17. Ikki oyoqda o'tirib turish texnikasini takomilashtirish.
18. Nazorat meyorlarini qabul qilish. Ikki oyoqda o'tirib turish.
19. Yakka cho'pda osilgan holatda tortinish texnikasini o'rgatish.
20. Yakka cho'pda osilgan holatda tortinish texnikasini takomillashtirish.
21. Yakka cho'pda osilgan holatda tortinishni hamma fazasini sinab ko'rish.
22. Nazorat meyorlarini qabul qilish. Yakka cho'pda osilgan holatda tortinish
23. 100 metrga yugurishda past startga turish va yugurib chiqish texnikasini o'rgatish.
24. 100 metrga yugurishda past startga turish va yugurib chiqish, to'g'ri yo'lakdan yugurish, marraga yetib kelish texnikasini o'rgatish.
25. 100 metrga yugurishda past startga texnikasini sinab ko'rish.
26. Nazorat meyorlarini qabul qilish. 100 m.ga yugurish.
27. Kross - 3000 m.ga (o'g'illar), 2000 m.ga (qizlar) yugurishda yuqori start texnikasini o'rgatish, yuqori startdan yugurib chiqish, to'g'ri yo'lakdan yugurish, qayrilish yulakdan yugurish, marraga yetib kelish texnikasini o'rgatish, sinab ko'rish.
28. Kross. - 3000 m.ga (o'g'illar), 2000 m.ga (qizlar) yugurishda to'g'ri va qayrilish yo'lakdan yugurish texnikasini takomillashtirish.
29. Kross. - 3000 m.ga (o'g'illar), 2000 m.ga (qizlar) yugurishni sinab ko'rish.
30. Nazorat meyorlarini qabul qilish. Kross. 3000 m.ga (o'g'illar), 2000 m.ga (qizlar) yugurish.

II.II Amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish mashqlari va ularning majmualarini keng tanlash tavsiya qilinadi.

Amaliy mashg'ulot shakllari tashkil etish va metodik ta'minoti, vosita va usullar majmui, talabalarning bajargan ishlarining joyi va usullarini hisobga olish jihatidan har xil bo'lishi mumkin. Oliy o'quv yurtlari tomonidan ishlab chiqilgan ishchi o'quv dasturiga talabaning asosiy jismoniy sifatlarini va uning funksional holatini aniqlash va baholash uchun testlar kiritilishi lozim.

II.III. Amaliy mashg'ulotlarni olib borish uchun talabalar quyidagicha o'quv bo'limlariga taqsimlanadi: asosiy, maxsus va sport. O'quv bo'limlariga taqsimlash o'quv yili boshida talabaning jinsi, sog'lig'i holati (tibbiy xulosa), jismoniy rivojlanishi, jismoniy va sport bilan shug'ullanganligi va qiziqishlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Asosiy o'quv bo'limiga tibbiy ko'rik xulosasiga ko'ra asosiy va tayyorlov guruhlariga biriktirilgan talabalar qabul qilinadi. Ular umumiy jismoniy tayyorgarlik dasturi bo'yicha shug'ullanadi.

Maxsus tibbiy bo'lim (guruh) tibbiy ko'rikdan o'tish paytida sog'lig'ida biron bir nuqsonga yega bo'lgan yoki jismoniy faoliyatni to'liq bajarishga imkon bermaydigan surunkali kasalliklarga chalingan, shuningdek jismoniy va funksional tayyorgarligi past bo'lgan talabalarni o'z ichiga oladi. Salomatligi sababli uzoq vaqt amaliy mashg'ulotlardan vaqtincha ozod qilingan talabalar ushbu fanni nazariy va amaliy qismlari bo'yicha topshiriq olishadi va himoya qilishadi.

Salomatligi sababli uzoq vaqt amaliy mashg'ulotlardan vaqtincha ozod qilingan talabalar ushbu fanni nazariy va amaliy qismlari bo'yicha topshiriq olishadi va himoya qilishadi.

Maxsus o'quv guruhlari. Salomatlik holatida patologik og'ishlarga ega bo'lgan yoki kasallikdan keyin reabilitasiya qilinadigan talabalardan iborat maxsus o'quv guruhi tuziladi. Maxsus o'quv guruhlarini talabalar jinsi, kasalliklarining tabiati, ularning jismoniy va funksional holati darajasini hisobga olgan holda amalga oshiriladi (kasallik gruhlari "A", "B", "V»):

- "A" guruhi - yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari kasalliklari, asab va endokrin tizimlar, otolaringologiya, ko'rish organlarida nuqson bo'lgan talabalar.
- "B" guruhi - qorin bo'shlig'i organlari kasalliklari (surunkali xolesistit, surunkali gastrit, oshqozon yarasi, kolit va boshqalar), tos bo'shlig'i (tuxumdonlar disfunksiyasi, ginekologik yallig'lanish kasalliklari va boshqalar), yog' va suv-tuz almashinuvi buzilgan hamda buyrak kasalligi bo'lgan talabalar.
- "V" guruhi - mushak-skelet tizimining buzilishi va motor funksiyasining pasayishi bo'lgan talabalar.

Maxsus o'quv guruhidagi o'quv jarayoni quyidagilarga qaratilgan:

- talabalarning kasalliklari uchun ko'rsatmalar va kontrendikasiyalarni hisobga olgan holda mashiqlarni tanlanishi (mashqlarni tanlash va darajalash);
- talabalarning irodasini shakllantirish, qiziqish, faollik va muntazam mashq qilish uchun obyektiv ehtiyoj;
- talabalar tomonidan tananing jismoniy va funksional holatini nazorat qilish

Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 60810400-Agranomiya 60810600 - Qishloq xo'jaligi kinlari eleksiyasi va urug'chiligi 60810700 - Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan –"Jismoniy madaniyat va sport" fan dasturiga

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi "Jismoniy madaniyat va sport" fani yuzasidan malaka talablariga keltirilgan barcha talablarga muvofiq tuzulgan. Jismoniy madaniyat va sport fani asosan 60810400-Agranomiya 60810600 - Qishloq xo'jaligi kinlari eleksiyasi va urug'chiligi 60810700 - Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishini qamrab olgan bo'lib ular jismoniy madaniyatning uslubiy asoslari va sport mashqidan iboratdir.

Oliy ta'lim tizimida jismoniy madaniyatni o'rni va ahamiyati; ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat darslarini tashkil qilish va o'tkazish usullari; jismoniy madaniyat darslarida talabalarlar faoliyatini tashkil etish usullari; darsdan tashqari olib boriladigan jismoniy madaniyat ishlariga tavsif; xronometraj, pulsometriya o'tkazish uslubiyoti haqida ko'nikmalarga ega qilashni nazarda tutadi.

Undan tashqari dastur materiallarini amaliy o'zlashtirish jismoniy madaniyat va sport bo'yicha bo'lajak kadrlarning ma'naviy-ma'rifiy xislatlarini shakllanishiga, ularni tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishini kuchayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi, sport-pedagogik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiriladi, yuqori malakali mutaxassisga xos xislatlarini shakllantiradi, murabbiylik va tashkilotchilik faoliyatiga ijodiy yondoshishini faollashtiradi.

Mazkur fan dasturi fanning aynan shu maqsadlaridan kelib chiqqan holda amaldagi malaka talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'quv dasturida belgilangan mavzular fanning o'quv va ishchi o'quv rejalarida belgilangan soatlar hajmini to'la qamrab oladi. O'quv dasturining amaliy mashg'ulotlar mavzulari mavjud imkoniyatlar asosida tuzilgan.

Berilgan mashg'ulotlar talabalar tomonidan to'liq bajarilishi katta amaliy ko'nikma va bilimlar shakllanishiga asos bo'ladi. Fan o'quv dasturining ahamiyatli jihatlaridan biri mustaqil ta'lim mavzulari talabalarni amaliy mashg'ulot mavzularidan tashqari bilimlar olishga undaydi. Mustaqil ta'limni sifatli amalga oshirishlari uchun kerakli bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyatlar ham dasturdan o'rin olgan.

Umuman olganda, "Jismoniy madaniyat va sport" fan dasturi mavjud malaka talablari asosida tuzilgan va ishchi o'quv dasturlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Samarqand davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti.
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti **M.A.Imomov**

NING IMZOSIN
TASDIQLAYMA
O'ZBEKISTON - FINLAND
PEDA INSTITUT
KOORDINATOR SULIMI DOST

Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti 60810400-Agranomiya 60810600 - Qishloq xo'jaligi kinlari eleksiyasi va urug'chiligi 60810700 - Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan –"Jismoniy madaniyat va sport" fan dasturiga

TAQRIZ

Mazkur fan dasturi bakalavriat 60810400-Agranomiya 60810600 - Qishloq xo'jaligi kinlari eleksiyasi va urug'chiligi 60810700 - Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, " Jismoniy madaniyat va sport" fanida O'zbekiston Respublikasida jismoniy madaniyat tizimining rivojlanishi, vositalari, metodlari, o'rgatish bosqichlari, jismoniy madaniyat darslarini tashkil qilish usullari haqida nazariy va amaliy ta'lim berishni ta'minlovchi sohani o'rganish fani bo'lib hisoblanadi. Jismoniy madaniyat amaliyotida ulardan foydalanish masalalariga muhim o'rin berilgan. Jismoniy madaniyat va sport o'quv fani sifatida bakalavrlarni Jismoniy madaniyat va sport jarayonida ularning kasbiy-amaliy faoliyatiga keng nazariy va amaliy harakat ko'nikmalarini shakllanishiga hamda harakatlarga o'rgatish metodlari va metodikalarini ochib berishdan iboratdir, shuningdek, o'rgatish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalarini o'z bilim doirasiga qamrab oladi.

Dastur materiallarini amaliy o'zlashtirish – bo'lajak kadrlarga Jismoniy madaniyat va sport fani bo'yicha atroflicha va chuqur bilimlar berish. Kelajakdagi ish faoliyatlarida kasbiy-amaliy ahamiyat kasb etuvchi Jismoniy madaniyat va sport bo'yicha kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olish kabi bilimlar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi.

Bo'lajak mutaxasislarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida umumrivojlantiruvchi mashqlardan, umumiy va maxsus mashqlardan foydalanish hamda sport musobaqalari, sport bayramlarini tashkil qilish va o'tkazish hamda sport to'garaklarini tashkil qilish kabi bilimlarini shakllanishini o'rganishga ko'maklashadi.

Fan dasturi fanning aynan shu maqsadlaridan kelib chiqqan holda amaldagi malaka talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'quv dasturida belgilangan mavzular fanning o'quv va ishchi o'quv rejalarida belgilangan soatlar hajmini to'la qamrab oladi. O'quv dasturining amaliy mashg'ulotlar mavzulari mavjud imkoniyatlar asosida tuzilgan.

Berilgan mashg'ulotlar talabalar tomonidan to'liq bajarilishi katta amaliy ko'nikma va bilimlar shakllanishiga asos bo'ladi. Fan o'quv dasturining ahamiyatli jihatlaridan biri mustaqil ta'lim mavzulari talabalarni Ma'ruza, amaliy mashg'ulot mavzularidan tashqari bilimlar olishga undaydi. Mustaqil ta'limni sifatli amalga oshirishlari uchun kerakli bo'lgan asosiy va qo'shimcha adabiyatlar ham dasturdan o'rin olgan.

Umuman olganda, "Jismoniy madaniyat va sport" fan dasturi mavjud malaka talablari asosida tuzilgan va ishchi o'quv dasturlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shorof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi dotsenti, P.f.d.f.d.(PhD): **O.E.Toshmurodov**

uchun kasalliklarning oldini olishda jismoniy tarbiya va sportdan foydalanish usuli to'g'risidagi bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirish;

- salomatlikni mustahkamlash, jismoniy holatini va holatini to'g'rilash, funksional imkoniyatlarini oshirish, organizmning atrof-muhitning zararli ta'siriga chidamliligi o'zlashtirish.

O'quv guruhlarida tavsiya etiladigan talabalar soni: asosiy bo'lim-18-20 nafar talaba, maxsus bo'lim-12-15 nafar talaba.

Sport ta'limi bo'limi umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi yaxshi bo'lgan va tanlangan sport turi bilan shug'ullanishga tibbiy ko'rsatmalari mos keladigan talabalardan iborat. Sport bo'limidagi o'quv jarayoni:

- sport tayyorgarligi tamoyillariga rioya qilish (sikl, individualizasiya, chuqur ixtisoslashuv, o'quv jarayonining uzluksizligi);
- sport mahoratini oshirish;
- talaba-sportchini sport musobaqalariga tayyorlash. Sport bo'limidagi o'quv guruhlarining soni sportning o'ziga xos xususiyati va o'quv jarayoni uchun Oliy o'quv yurtining sport bazasining holati bilan belgilanadi.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. OTM sport to'garaklaridagi mashg'ulotlar.
2. Darsdan bo'sh vaqtlarda nazorat meyorlariga tayyorgarlik ("Jismoniy tarbiya va sport" o'qituvchilari bilan konsultatsiyalar)
3. Ertalabki gigiyenik gimnastika (EGG) majmuasini o'zlashtirish.
4. Sog'lamlashtirish maqsadida jismoniy madaniyat vositalaridan profilaktik majmualar tuzish.
5. Tananing jismoniy holatini nazorat qilish uslibiyatini o'zlashtirish.
6. Funksional testlar o'tkazish ko'nikmalarini o'zlashtirish.
7. Xar xil darajadagi sport musoboqalarida, jismoniy-sog'lomlashtiruvchi va ommaviy sport tadbirlarida ishtirok etish.
8. Tanlangan sport turi bo'yicha badan qizdirish mashqlarini tuzish.
9. Sport va jismoniy mashiqlar bilin shug'ullanishda o'zini-o'zi nazorat qilish usullarini o'zlashtirish. O'zini nazorat qilish kundaligini olib borish.
10. Bo'lajak kasbiy faoliyatiga bog'liq jismoniy mashiqlardan iborat individual dasturlar tuzish.
11. Xar xil mushaklar guruxi uchun mashqlar majmuasini tuzish.
12. Jismoniy holatining individual darajasidan kelib chiqqan holda mashiq majmuasini tuzish.
13. Tanlangan sport turi bo'yicha musobaqa tashkil qilish.
14. Jismoniy madaniyat va sog'lom turmush tarzining ilmiy-amaliy asoslarini bilish.
15. Sport mahoratini oshirish.
16. Ertalabki badantarbiya mashqlari bilan tanishish.
17. Tezlik sifatlarini rivojlantirish.
18. Chidamlilik sifatlarini tarbiyalash. Har kuni mashq bajarish.

19. Kuchlilik sifatlarini rivojlantirish.
20. Mustaqil jismoniy tayyorgarlik uchun maxsus kompleks mashqlarni tanlash.
21.Har kuni maxsus yugurishmashqlarini bajarish.
22. Egiluvchanlik sifatlarini rivojlantirish.
23. Chaqqonlik sifatlarini rivojlantirish.
24. Sakrovchanlik sifatlarini rivojlantirish.
25. Sport o'yinlari turlari qoidalarini nazariy o'rganish
26. Sport o'yinlari turlari bilan mustaqil shug'ullanish.
27. Harakatli o'yinlar haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish.
28. Gimnastikaning umum rivojlantiruvchi turlari
29. Suzish turlari haqida tushunchaga ega bo'lish.
30. Yengil atletika haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar va taqdimotlar tayyorlash tavsiya etiladi.

3

IV. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalar

Talaba bilishi kerak:

- jismoniy tarbiya va sport fanidan o'quv jarayonida olgan bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish haqida ***tasavurga ega bo'lish;*** **(bilim)**
- Faol va sog'lom turmush tarzini olib bora olish, kasbiy faoliyatda muntazam ravishda jismoniy faollikni rivojlantirishni ***bilish va ulardan foydalana olishi;*** **(ko'nikma)**
- Shaxsiy xususiyatlar va psixofizik qobiliyatlar, sog'liqni saqlash va mustahkamlash ko'nikmalariga ega bo'lish, oilada va jamiyatda sog'lom turmush tarzi hamda jismoniy tarbiya asoslarini tushuntirish, tarqatish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)***

4

V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5

VI. Kreditlarni olish uchun talablar:

Joriy nazorat shakillarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat sinovlarini muvaffaqiyatli topshirish.

6

Asosiy adabiyotlar

1. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. Darslik, "ITA PRESS" nashriyoti. Toshkent. 2014 yil.
2. Tashpulatov F.A. Jismoniy tarbiya va sport. O'quv qo'llanma, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. Toshkent 2019 yil.
3. Abdullayev M.J. Sport Mahoratini oshirish (yengil aatletika) Darslik, "Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi" Toshkent 2019 yil

4. Kerimov F.A.Kurash elementlariga ega harakatli o'yinlar Toshkent 2020 yil
5. Research Methods in Physical Activity Copyright © 2015 by Jerry R. Thomas, Jack K. Nelson, and Stephen J. Silverma

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 52 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021 yil. – 36 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022 yil. – 416 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.
6. Пулатов А.А., Ашуркова С.Ф. Спортивные и подвежные игри (волейбол) Учебное пособие. Ташкент, 2018 год.
7. Светличная Н.Л. Адаптивная физическая культура и спорт Ташкент-2021 год "O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi"

Axborot manbaalari

1. www.ziyonet.uz – Образовательный портал Республики Узбекистан.
2.www.nuu.uz–Официалный сайт Национального Университета Узбекистана.

7

Fan dasturi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi "840000 -Veterinariya" ta'lim sohasi bo'yicha Kengashning 2025-yil "28" 08 dagi 3 sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8

Fan/modul uchun ma'sular:

Tuvalov A.B. SamDVMCHBU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madfaniyat va sport" kafedrasi katta o'qituvchisi

Mirzayev A.X. SamDVMCHBU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madfaniyat va sport" kafedrasi katta o'qituvchisi

Imomov A.A. SamDVMCHBU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madfaniyat va sport" kafedrasi o'qituvchisi

9

Taqrizchilar:

1. **Toshmurodov O.E.** Shorof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi dotsenti, P.f.d.f.d.(Phd)
2. **Imomov M.A.** Samarqand davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti. Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi dotsenti